

## ARAB TILIDA “MA” (مَا) YUKLAMASINING GRAMMAIK VAZIFALARI

### GRAMMATICAL FUNCTIONS OF THE PARTICLE “MĀ” (مَا) IN THE ARABIC LANGUAGE

**Nutfilloyeva Marjona Ismat qizi**

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

[marjonanutfilloyeva2221@gmail.com](mailto:marjonanutfilloyeva2221@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Umurzakova Aygul Umarovna**

O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

**Annotasiya.** Ushbu maqolada arab tilidagi “ما” birlikining struktur-semantik xususiyatlari, uning nahviy tasnifi va funksional differensiasiyasi chuqur tahlil etiladi. Tadqiqotda “ما” ning inkor, istifhom, shart, masdariylik va mawsuliylik kabi asosiy turlari grammatik mezonlar asosida ajratilib, ularning sintaktik roli, semantik yuklamasi hamda kontekstga ko'ra o'zgaruvchanlik darajasi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada “ما” ning boshqa yaqin ma'noli partikula va olmoshlar bilan paradigmatic va syntagmatic munosabatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari arab tili nahv tizimini ilmiy-analitik o'rganish jarayonida ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** ism so'z turkumi, fe'l so'z turkumi, harf, masdar, inkor shakl, so'roq shakli.

**Аннотация.** В данной статье проводится всесторонний анализ структурно-семантических характеристик арабской частицы “ما”, её нахвической классификации и функциональной дифференциации. Основные типы употребления — отрицательная, вопросительная, условная, масдарная и относительная функции — выделяются на основе грамматических критериев и рассматриваются в их синтаксической и семантической спецификации. Кроме того, статья содержит сравнительное исследование парадигматических и синтагматических связей частицы “ما” с родственно-значимыми единицами. Полученные результаты представляют как теоретическую, так и практическую ценность для лингвистического анализа и изучения арабской нахвовой системы.

**Ключевые слова:** имя, глагол, частица, масдар, отрицательная форма, вопросительная форма.

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the structural and semantic features of the Arabic particle “ما”, including its syntactic classification and functional differentiation. The principal categories of its usage—negational, interrogative, conditional, masdari (verbal-noun forming), and relative—are examined on the basis of grammatical criteria, with emphasis on their syntactic behavior and semantic functions within context. The study also presents a comparative investigation of the paradigmatic and syntagmatic relations between “ما” and other closely related particles and pronouns in Arabic. The findings offer both theoretical and practical value for linguistic research and for the study of the Arabic grammatical (nahw) system.

**Keywords:** noun, verb, particle, masdar, negative form, interrogative form.

Arab tili – turli grammatik birliklar va murakkab sintaktik tizimga ega til bo'lib, uning o'rganilishi tilshunoslikda katta ahamiyatga ega. Shu tilning eng ko'p ishlatiladigan va turli ma'nolarga ega birliklaridan biri – “ما” so'zidir. “ما” so'zi kontekstga qarab turli vazifalarda ishlatiladi: u fe'lni inkor qilish, savol berish, shartni ifodalash, masdar shaklida ishlash yoki jumlada bog'lovchi sifatida kelishi mumkin. Shu sababli “ما” ning grammatik xususiyatlarini tushunish arab tili matnlarini to'g'ri talqin qilish va o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada “ما” ning asosiy grammatik shakllari – inkor, so'roq, nisbiy (mawsul), masdariy va shart shakllari – o'rganiladi. Har bir shaklning ma'nosi, jumladagi vazifasi va qo'llanilish usuli oddiy va tushunarli tarzda tushuntiriladi. Maqolada keltiriladigan misollar yordamida “ما” ning har bir shakli qanday vazifa bajarishi aniq ko'rsatib beriladi, shuningdek uning arab tili matnidagi ahamiyati ochib beriladi.

### **1. Inkor shakli (النافية ما)**

Inkor shaklida “ما” fe'lni inkor qiladi. Ma'nosi – “...emas” yoki “...madi”. Shu shakl jumlada sodir bo'lmagan harakat yoki holatni bildiradi.

Vazifasi: jumlaning asosiy xabarini inkor qilishga yordam beradi va voqeani rad etish imkonini beradi.

Misol: Zayd kelmadi – ما جاء زيد.

Izoh: Bu yerda “ما” fe'lni inkor qiladi, ya'ni voqea sodir bo'lmaganini bildiradi.

Men darsni o'qimadim – ما درستُ الدرس.

Izoh: Shu shakl ishni bajarilmaganini bildiradi va jumlaning asosiy ma'nosini inkor qiladi.

Inkor shakli arab tilida eng keng tarqalgan shakllardan biri bo'lib, kundalik muloqot va yozma matnlarda tez-tez ishlatiladi.

### **2. So'roq shakli (الاستفهامية ما)**

So'roq shaklida “ما” savol so'zi sifatida ishlatiladi. Ma'nosi – “nima?”.

Vazifasi: gapda savol berish va javob olishni osonlashtiradi, matnga aniqlik kiritadi, tushunishni ta'minlaydi.

Misol: Bu nima – ما هذا؟

Nimani xohlaysan – ما تريد؟

Bu shakl muloqotda va ilmiy matnlarda tez-tez ishlatiladi, chunki u savol berish va ma'lumot olish imkonini beradi.

### **3. Nisbiy / Mawsul shakli (الموصولة ما)**

Mawsul shaklida “ما” jumlada bog'lovchi sifatida ishlatiladi. Ma'nosi – “...narsa ki”.

Vazifasi: jumlada aniqlik kiritadi, fikrni bog'lashga yordam beradi, aytilayotgan voqeani batafsil tushuntiradi.

Misol: Xohlagan narsangni qil – افعل ما تريد.

Izoh: Bu yerda “تريد ما” buyruqni aniqlashtiradi va bajarilishi kerak bo'lgan ishni bildiradi.

Sen aytgan narsaga hurmat qilaman – احترم ما تقول.

Mawsul shakli rasmiy, ilmiy va adabiy matnlarda ko'p ishlatiladi.

### **4. Masdariy shakli (المصدرية ما)**

Masdariy shaklda “ما” fe’lni masdar shaklida ishlatadi. Ma’nosi – “... qilgan narsa”.

Vazifasi: jumlada sabab yoki holatni ifodalashga yordam beradi, voqea natijasini yoki his-tuyg’ularni ko’rsatadi.

Misol:

سُرِرْتُ مِمَّا فَعَلْتُ. – Sening qilganingdan xursand bo’ldim.

عَجِبْتُ مِمَّا رَأَيْتُ. – Ko’rganingdan hayron qoldim.

Masdariy shakl hikoya va tushuntirishlarda, his-tuyg’ularni ifodalashda keng qo’llaniladi.

### **5. Shart shakli (الشرطية ما)**

Shart shaklida “ما” shartli ma’noni bildiradi. Ma’nosi – “har qanday...” yoki “qaysi...”.

Vazifasi: jumlada sabab–natija aloqasini ko’rsatishga yordam beradi, umumiy qoida yoki maslahat berishda ishlatiladi.

Misol:

ما تفعل خيرًا تجده. – Qaysi yaxshilikni qilsang, uni topasan.

ما تعطى الناس يُعطوك. – Odamlarga nimani bersang, ular ham shuni senga qaytaradilar.

Bundan tashqari, Qur’oni Karimda bir necha ma’nolarda ham ishlatiladi:

Ba’zan “ما” “qaysiki...”, “kimki...” ma’nosida ishlatiladi va arab tilida munosib shart qo’shimchasi vazifasini bajaradi.

Masalan: “أَيدِيكُمْ كَسِبَتْ فِيمَا مَصِيبَةٍ مِنْ أَصَابِكِ مَا” – “Sizga kelgan musibat – qo’llaringiz bilan qilganingiz tufayli”

Bu yerda “ما” “nima... bo’lgan bo’lsa” ma’nosini beradi.

### **Hech narsa, umuman narsani bildiruvchi “ما”**

Masalan: “اللَّهُ إِلَّا مَعِينٍ مِنْ لَنَا مَا” – “Bizda yordam beruvchi hech kim yo’q, faqat Allohdan boshqa”.

Shart shakli odatda hayotiy maslahatlar, umumiy qoida va tavsiyalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

**Xulosa.** Arab tilidagi “ما” so’zi grammatik jihatdan juda ko’p funksiyali birlik hisoblanadi va turli kontekstlarda turlicha vazifalarni bajaradi. Shu so’zning turli shakllari – inkor, so’roq, nisbiy (mawsul), masdariy va shart shakllari – har birining o’ziga xos ma’nosi va vazifasi mavjud. Inkor shakli (النافية ما) voqea yoki harakatning sodir bo’lmaganini bildiradi va jumlaning asosiy xabarini inkor qilish imkonini beradi. So’roq shakli (الاستفهامية ما) savol berish va muloqotda aniqlik kiritish vazifasini bajaradi, shuningdek, retorik yoki taajjub ifodasida ishlatilishi mumkin. Nisbiy yoki mawsul shakl (الموصولة ما) jumlada bog’lovchi vazifasini bajarib, fikrni silliq bog’lash, izoh berish va murakkab jumlalarini tushunarli qilish imkonini yaratadi. Masdariy shakl (المصدرية ما) esa fe’lni masdar shaklida ishlatib, sabab-natija munosabatini ko’rsatadi, voqea va his-tuyg’ularni ifodalashda muhim rol o’ynaydi. Shart shakli (الشرطية ما) esa gapda shartli aloqani bildiradi, umumiy qoida, maslahat va hayotiy haqiqatlarni ifodalashda keng qo’llaniladi. Bundan tashqari, har bir shaklning qo’shimcha vazifalari ham mavjud. Masalan, e’tibor qaratish, ajablanish yoki hayrat ifodasi, murakkab fikrlarni silliq bog’lash, matnni boyitish, shubha yoki ishonchsizlikni ifodalash kabi

vazifalarni ham bajaradi. Shu sababli “ل” ning grammatik xususiyatlarini chuqur tushunish arab tilini o‘rganish, yozma va og‘zaki matnlarni to‘g‘ri talqin qilish, muloqotda aniq va ravon ifoda berish uchun juda muhimdir. Shuningdek, “ل” so‘zining turli shakllari tilni boyitadi, jummalarni murakkablashtiradi va ifodaning aniqligini oshiradi. Arab tilini o‘rganayotgan har bir kishi uchun bu so‘zni to‘liq tushunish uning grammatik bilimini mustahkamlash, til boyligini oshirish va matnni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. – 1-kitob. B. 79.
2. Mahmud Ziyod. Arab tili grammatikasi. – 1-kitob. B. 61.
3. Hasanov M. Arab tili darslari. – B.95.
4. [ziyo.net.uz](http://ziyo.net.uz) sayti